

BO`LAJAK MUTAXASSISLARNI NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

*Abdullayeva Nasibaxon Jo‘rayevna
p.f.d., professor.
Mamatqulova Nilufar Boyzoq qizi
ADU tayanch doktaranti*

Annotatsiya: ushbu maqolada bo`lajak mutaxassislarni ijtimoiy munosabatlarda nutq madaniyatining tutgan o`rni hamda jamiyat hayotida muloqatning ahamiyati, muloqat shakllari va bosqichlari, muloqatning kommunikativ, interaktiv, pertseptiv tomonlari va pedagogik muloqat haqida ma`lumotlar berilgan. Inson bor ekan o`zga insonlar bilan muloqot qiladi. So`z orqali, imo ishoralar orqali va boshqalar. Nutq madaniyatining yaxshi rivojlanishi tinglash odobi va gapirish odobiga ham ko`p jihatdan bog`liq.

Kalit so‘zlar: Muloqat, pertseptiv, kommunikativ, interaktiv, kasbiy pedagogik, muloqotchanlik, nutq madaniyati.

Аннотация: данная статья информирует будущих специалистов о роли культуры речи в общественных отношениях и значении общения в обществе, формах и этапах общения, коммуникативных, интерактивных, перцептивных аспектах общения и педагогическом общении. Пока есть человек, он общается с другими людьми. Через слова, жесты и т. Хорошее развитие речевой культуры зависит от манеры слушать и говорить.

Ключевые слова: общение, перцептивное, коммуникативное, интерактивное, профессиональная педагогика, общение, культура речи.

Abstract: this article informs future professionals about the role of speech culture in social relations and the importance of communication in society, forms and stages of communication, communicative, interactive, perceptive aspects of communication and pedagogical communication. As long as there is a person, he communicates with other people. Through words, gestures, etc. The good development of speech culture depends on the manners of listening and speaking.

Key words: communication, perceptive, communicative, interactive, professional pedagogy, communication, speech culture.

Muloqat odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida etakchi o`rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni-jamiyatda yashash va o`zini shaxs deb hisoblash bilan bog`liq ehtiyojlarni qondiradi. Muloqat-odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklar mobaynida bir-biri bilan o`zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Yani har bir shaxsning jamiyatda ado etadigan ishlari o`zaro munosabat va o`zaro ta`sir shakllarini o`z ichiga oladi.

Muloqat tushunchasi shunday jarayonki, unga bir vaqtning o`zida quydagilar kiradi:

- a) Individlarning o`zaro ta`sir jarayoni;
- b) Individlarning o`rtasida axborot almashuvi jarayoni;
- c) Bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;
- g) Bir kishining boshqalarga ta`sir ko`rsatish jarayoni;
- d) Bir-biriga hamdardlik bildirish imkoniyati;

e) Shaxslarning bir-birlarini tushunish jarayoni;

Maxsus pedagogik qobiliyatlari ichida shundaylari ham bor, ularni aniq o‘qituvchilik yoki tarbiyachilik faoliyatiga mansub deb ajratib bo‘lmaydi. Negaki, ular har ikkalasi uchun ham bir xilda zarurdir. Ushbu jihat-pedagogik muloqot, muomaladir. Psixolog olim V.A.Kan-Kalik bunday qobiliyatni tadqiq qilib shunday fikrlarni bergan edi. Pedagogik ishi o‘z tuzilishida ikki yuzdan ortiq tuzilmani tashkil qiladi. Muloqot uning eng murakkab tomonlaridan biridir, negaki u orqali pedagogik faoliyatning eng asosiy maqsadi-o‘qituvchi shaxsining o‘quvchi shaxsiga ta’siri amalga oshiriladi. Pedagogning muhim mahoratlaridan yana biri o‘quvchilar bilan uzoq va samarali ta’sir o‘tkazishni tashkil etishidir. Odatda, bu mahoratni pedagogning kommunikativ qobiliyati bilan bog‘laydilar. Kasbiy pedagogik muloqotiga ega bo‘lish shaxslararo muloqotga tegishli bo‘gan pedagog shaxsining muhim tamoni. O‘qituvchilik faoliyatining pedagogik nuqtai nazardan qiziqarli bo‘lgan, lekin kam o‘rganilgan va amaliyotda ko‘pdan ko‘p muammolar keltirib chiqaradigan turi pedagogik muloqotning noverbal shakli deb nomlanadi. Bu bilan bog‘liq kommunikativ qobiliyat quyidagilarni o‘z ichiga oladi: notanish odamlar bilan muomalaga kirisha bilish, ziddiyatlarni oldini olish, yuzaga kelgan tushunmovchilik va ziddiyatlarni o‘z vaqtida echa olish, boshqa odam tomonidan o‘zini to‘g‘ri tushunishni va qabul qilishni ta’minlaydigan tarzda o‘zini tutish, boshqa odamga o‘zining qiziqishlari va hissiyotlarini bayon etishga imkon berish, muloqotdan o‘zi uchun yuqori darajada foyda olish qobiliyati.

G.M.Andreeva muloqatning quyidagi tuzilishini taklif etdi:

1.Muloqatning kommunikativ tomoni:ya’ni, muloqatga kirishuvchilar o‘rtasidagi ma’lumot va axborotlar almashinuvi jarayoni.

2.Muloqatning interaktiv tomoni:ya’ni, muloqatga kirishuvchi tomonlarning bir-birlarining ijtimoiy xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatish jarayoni.

3.Muloqatning pertseptiv tomoni: :ya’ni, muloqatga kirishuvchi tomonlarning bir-birlarini idrok etishlari va tushunishlari bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab psixologik jarayon.

Xulosa qilib aytish mumkinki muloqat har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlarini, hattoki nuqsonlari ham, muloqat jarayonining mahsulidir.Jamiyatdan ajralgan, muloqatda bo‘lish qobiliyatini yo‘qatgan odam o‘zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo‘la olmaydi. Demak hamma faoliyat muloqatga bog‘liq hisoblanadi.Muloqat bu shaxslarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishida ma’lum bir faoliyat bilan shug‘ullanishida muhim rol o‘ynaydi. Alisher Navoiy muomala qiluvchi shaxsning mahorati haqida shunday deydi: «Shirin so‘z ko‘ngillar uchun bamisoli asaldir». Shuning uchun ham pedagog har on nutq madaniyatiga kuchli e’tibor berishi, o‘zining psixologik, estetik, jismoniy, axloqiy jihatlarini namuna holatda namoyon etishi muhim. Yuksak tuyg‘u madaniyatiga ega bo‘lgan pedagog talabalarning kayfiyati, noxushligini darrov fahmlaydi. Qo‘pol, odobsiz gaplarga o‘rin qoldirmaslik, talaba shaxsiga tegadigan qo‘pol muomala qilish pedagogning faoliyatiga putur etkazadi. Talaba ahvolini tushunish, unga hamdard bo‘lish, madad berish kerak.Bu jarayon esa muloqat jarayonida olib boriladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.A.Do‘stmuhammedova,G.Baykunasva,G.Ziyaviddinova ”Umumiy psixologiya “(Yosh davrlar va pedagogik psixologiya) 2020-yil

2. Z.T.Nishanova,N.G‘.Kamilova,D.U.Abdullayeva,M.X.Xolnazarova.”Rivojla nish psixologiyasi pedagogik psixologiya”Toshkent- 2019-yil.
3. B.Karimova “Ijtimoiy psixologiya”Toshkent-2007.
4. Cramond, B. & Wang, L. (2012). The audacity of creativity assessment. In S. Hunsaker (ed.), Identification of students for gifted and talented education services: Theory and practice, pp. 337–361. Mansfield, CT: Creative Learning Press.
5. Dewey, J. (1938/2008). The Later Works of John Dewey, Vol. 4, 1925–1953: 1929: The Quest for Certainty (Collected Works of John Dewey). Carbondale, IL: Southern Illinois University Press.